

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xasanov Shaxboz Shodi o‘g‘li

Termiz davlat universiteti doktoranti

E-mail: shaxboz.shohbaxt@gmail.com

Tel: +998 (91)574-48-41

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируются этапы становления и развития отрасли сельского хозяйства «Плодоовощеводство» на юге Сурхандарьинской области Узбекистана, приводятся выводы и предложения.

Ключевые слова: Южные регионы, плодоовощная продукция, хлопковая монополия, колхоз, совхоз, перерабатывающая промышленность.

Abstract: In this article, the stages of formation and development of the “Fruit and vegetable farming” branch of agriculture in the southern Surkhondarya region of Uzbekistan are analyzed based on scientific sources, conclusions and suggestions are given.

Key words: Southern regions, fruits and vegetables, cotton monopoly, collective farm, state farm, processing industry.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligining “Meva va sabzavotchilik” tarmog‘ining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, xulosa va takliflar berib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: Janubiy hududlar, meva va sabzavot, paxta monopoliyasi, kolhoz, sovhoz, qayta ishlash sanoati.

Tarixdan ma‘lumki, insoniyatning ilk xo‘jalik yuritish shakli bu o‘zlashtirma xo‘jalik bo‘lib, termachilik va ovchilikdan iborat bo‘lgan. Yani bu davrda tabiat insonga qanday ne‘mat bergan bo‘lsa, barchasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirgan. Keyinchalik insoniyatning tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi natijasida, ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik: dehqonchilik va chorvachilikni tashkil etadi. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yuritish insonga yaratuvchilik qobiliyatini berdi. Dehqonchilikning eng qadimgi tarmoqlaridan bo‘lgan meva va sabzavotchilik asrlar davomida insonyat hayotining birlamchi ehtiyojlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki bu tarmoq oziq-ovqat sanoatining ajralmas bir bo‘lagi hisoblanadi. XX asr oxiriga kelib, ikki qutibli dunyo urushiga barham berilgach, yer yuzining siyosiy xaritasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar avvalo, demokratik liberalizm, bozor munosabatlariga asoslangan xo‘jalik yuritish shakllarini taraqqiy etishiga olib keldi. SSSR parchalangach, uning tarkibidagi mamlakatlar o‘z taqdirini o‘zi belgillab, bozor munosabatlariga asoslangan, teng integratsion jarayonlarga kirib bordi. Yurtimiz mustaqillikka qadar, SSSR tarkibida meva va sabzavotchilik tarmog‘i mavjud va shakllangan bo‘lsada, paxta ekiladigan hududlar asosiy qismni tashkil etgan¹.

SSSRda qayta qurish yillari oziq ovqatga qaramligi ittifoq davrda oshib bordi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach paxta monopoliyasiga bosqichma-bosqich chek qo‘yilib, qolgan

¹ Atamuratovich, K. E. (2021). Fruit and Vegetable Sector of Agriculture in the Years of Independence: Development, Challenges and Results. JournalNX, 7(10), 124-127.

tarmoqlar bilan birga meva va sabzavotchilikka ham katta e'tibor qaratilganligini alohida takidlashimiz lozim. Hozirgi davrda dunyoda kechayotgan demografik jarayonlar, aholi sonining keskin ko'payishi, texnik taraqqiyot, urbanizatsion jarayonlarining kengayishi natijasida, aksincha ekologik muammolar va boshqa tabiiy omillar tufayli oziq – ovqat, meva – sabzavot mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari qiyinlashuviga olib kelmoqda. Insoniyatning oziq – ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish global muammoligicha qolmoqda. Xalqaro dietologlar tavsiyasiga ko'ra, inson oziq – ovqat iste'molining 50 foizini meva va sabzavotlar tashkil qiladi. Shuningdek, xalqaro Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) BMTning ming yillik rivojlanish dasturida belgilangan ko'rsatmalarga tayanib kambag'al aholini oziq – ovqat bilan ta'minlashni ustuvor vazifalariga alohida e'tibor bermoqda. Rivojlanayotgan davlatlarni agrar soha mutaxassislari bilan ta'minlash maqsadida Erasmus Mundus Partnership Action 2, GREENMA, APOLLO e.V, LOGO e.V. singari dasturlar qabul qilinib, yosh mutaxassislar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlariga ta'lim olish uchun yuborilmoqda². Mustaqillik yillari, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining meva va sabzavotchilik tarmog'i asosiy o'rinni egallab, yer yuzining aksariyat mamlakatlariga eksport qilinadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining boshlarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida – qishloq xo'jaligi – Respublika iqtisodiyotining eng ko'lamli, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lib, Respublikaning taqdiri ko'p jihatdan shu sohaning qanday rivojlanishiga bog'liq deb ko'rsatib, qishloq xo'jaligining taqdiri, demakki, eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy muammolarimizning hal etilishi, pirovard natijada, mamlakatimiz oziq – ovqat ta'minoti xavfsizligi bu boradagi ishlarning ko'lami va samaradorligi bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tgan. 2014-yil 6-iyunda mamlakatimiz poytaxti Toshkentda o'tkazilgan "O'zbekistonda oziq – ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzuidagi xalqaro konferensiyada: "O'zbekistonda har yili 16 million tonna meva va sabzavot yetishtirilmoqda... Meva va sabzavotlarda inson uchun zarur bo'lgan ko'plab mikroelement, vitamin, biologik moddalar bor. Respublikada uzumning 175 navi, kartoshkaning 170 navi yaratilgan. Meva va sabzavotlar yetishtirish uchun bizda qulay iqlimiy imkoniyat bor, 320 kun quyoshli bo'ladi"³, – deb fikr bildirgandilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda mevalilik taraqqiy qilib, biz dunyoning 80 davlatiga 180 turdan ortiq meva va sabzavotlar eksport qilayapmiz. Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, meva va sabzavotlarning yangi navlarini yaratish masalalari hech qachon hozirgidek dolzarb qilib qo'yilmagandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomativi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi"⁴ – deb ta'kidlagan edilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2021-yil

² Beg'amova N.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil topishi va klaster tizimi: tarix va tahlil (1991-2022 yillar Surxondaryo viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz. – 2022. 3-bet.

³ "O'zbekistonda oziq – ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzuidagi xalqaro konferensiyada Prezident I.A.Karimov nutqi (2014-yil 6-iyun). Vatanparvar; 2014-yil 13-iyun. №24).

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi). – T.: O'zbekiston; 2016. – B.15.

2-noyabrda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasiga start berildi. Bu loyihaga asosan davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘larning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Mening bog‘im” loyihalarini moliyalashtirishi ko‘zda tutilgan⁵. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi – bu bir yillik tadbir emas”. Darhaqiqat, yashab turgan joyimizni ozoda saqlab, bizdan keyingi avlod ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun bugun biz tabiatga mehr va e‘tibor bersak kelajak avlod ham munosib ekologik sharoitda yashaydi. Buning uchun biz er va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash hamda daraxt ko‘chatlarini ekib, bog‘ yaratishimiz zarurdir⁶.

Dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida qishloq xo‘jaligining meva va sabzavot tarmog‘ining rivojlanish tarixini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy ishlar asosan rivojlanish jarayonlarini qamrab olgan holda tahlil etishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda har bir sohani tarixini ilmiy dalillar asosida hududlar kesimida yoritish, tadqiqot so‘ngida ularni o‘zaro taqqoslash uslubi keng rivoj topdi.

Prezident Sh. Mirziyoevning “O‘zbekistonning janubiy viloyatlari o‘zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o‘rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega”⁷, – degan fikrlari hududning yaqin o‘tmishdagi tarixining xolis talqinidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Meva-sabzavotchilik bo‘yicha “O‘zmevasabzavotuzumsanoat” konserni masalalari” to‘g‘risida 1991-yil 22-fevraldagi 41-son qarori, 1994-yil 28-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori “O‘zbekiston Respublikasi meva-sabzavot majmui korxonasi va tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 25-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 1997-yil 18-iyul “Respublika meva-sabzavot xo‘jaligida monopoliyadan chiqarish va ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 363-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-3003-sonli “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon, 2019-yil 17-apreldagi PQ-5708-son “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 6-noyabrdagi PQ-3377-son “Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 14-martdagi PQ-4239-son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6673808>.

⁶ <https://yuz.uz/uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi-aholi-hayoti-sifatini-oshirish-omili>.

⁷ Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 279.

to'g'risida"gi Farmon, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon va Qarorlari, shuningdek, mazkur yo'nalishga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqotga ma'lum darajada xizmat qiladi⁸.

Biz tadqiq etayotgan tarmoqning rivojlanishini ikki davarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:


1. 1941-1991 yillar;
2. 1991-2021 yillar.

Birinchi davri O'zbekiston SSSRda Surxondaryo viloyatini tashkil topishi va bu hududda tarmoqning shakllanishi va rivojlanishining birinchi bosqichi sanaladi.

Ikkinchi davr O'zbekiston Respublikasining paydo bo'lishi va mustaqillik yillarida tarmoqda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarining ikkinchi bosqichiga urg'u beriladi.

Surxondaryo 1925-yil 29-iyundan Surxondaryo okrugi sifatida paydo bo'lgan.⁹

1929-yil ma'lumotiga ko'ra, okrug 6 tumandan iborat bo'lgan: Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Patta Hisor, Sariosiyo, Sherobod. 1930-yil 30-iyul okrug SSSRning boshqa okruglari kabi tugatildi. Okrug tumanlari bevosita O'zbekiston SSR bo'ysunuviga o'tkazildi. Surxondaryo okrugi O'zbekiston SSRning chekka tumanlarni boshqarishda oson bo'lishi 1935-yil 17-aprelda qayta tashkil etiladi. Okrug tarkibiga Termiz, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Sariosiyo, Sherobod va Boysun tumanlari, yana 1938-yilda Buxoro viloyati kiritilgan. 1941-yil 6-martda okrug maqomi viloyatga o'zgartirildi.



⁸ Qabulov E.A., Hasanov Sh.Sh. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligining meva va sabzavotchilik tarmog'i: rivojlanishi, muammolar va natijalar. ҚарДУ ХАБАРЛАРИ Илмий-назарий, услубий журнал. 2021 3(49). 85-89-betlar.

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati.

1-rasm. Surxondaryo okrugi – O‘zbekiston SSR tarkibida 1926 – 1930 va 1935 – 1941-yillarda mavjud bo‘lgan ma‘muriy-hududiy birlik.

Okrugining umumiy hududi 19.607 kv kmni tashkil qilgan. Aholisi 600.000 kishidan ortiq shundan 580.000 nafari qishloq va 20.000 nafarga yaqin shahar aholisi edi. Okrugda jami 113.000 xo‘jalik hisobga olingan.¹⁰ Surxondaryo okrugi tashkil topganidan so‘ng sovet hukumati vakillari dastlabki ishni qishloq xo‘jaligini isloh qilishdan boshladilar. Uzoq davom etgan fuqarolar urushi asorati voha aholisi hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi, irrigatsiya tizimining ishdan chiqishi kabi omillar, aholi katta qismining dehqonchilikdan chorvachilik tarmog‘iga o‘tishiga sabab bo‘lgan edi.

Bu davrda okrugning umumiy er maydoni 2.128.566 desyatini tashkil etgan bo‘lsa-da, shundan faqat 153.000 desyatina er dehqonchilik maqsadlarida foydalanilgan. Jami yer maydonining 45 000 desyatini, ya‘ni uchdan bir qismi sug‘oriladigan, (obi) qolgan qismi esa lalmi yerlar hisoblangan¹¹. Tadqiq qilingan yillarda Surxondaryo okrugida qishloq xo‘jaligini yaxshi yo‘lga qo‘yish va xo‘jaliklarning iqtisodiyotini tiklash maqsadida vohada agrouchastkalar va agromarkazlar tashkil qilingan. Jumladan, 1924-yilda Sariosiyoda “Qo‘shchi” kengashi tuzildi. Tarixiy adabiyotlarda bu kengash orqali sovet hukumati kambag‘al dehqonlarga yordam qo‘lini cho‘zib, oziq-ovqat, urug‘lik don berdi, deb talqin qilinadi¹².

1925-yilda bo‘lib o‘tgan, sovetlarning III s‘ezdida ko‘rsatib o‘tilganidek, Surxondaryo okrugida ham asosiy e‘tibor dehqonchilik ishlariga qaratilgan. Bu jarayonni rivojlantirish maqsadida yangi mutaxassislar – agronomlarga qishloq xo‘jaligida er maydonining tuzilishi va ekin ekiladigan maydonlarning holati, agrotexnika ishlarini olib borish usullari hamda ekinlarni zararkunandalardan himoyalashni nazorat qilish vazifalari topshirilgan. Shuningdek, shu yili vohaga dehqonchilik unumini oshirish maqsadida 18 ta traktor keltirilgan bo‘lib, ushbu traktorlar ishi bilan bog‘liq masalalarni okrug agronomi boshqarar edi¹³.

1926-yilda Surxon vohasi erlarida agrotexnika ishlarini olib borish maqsadida 4 ta agromarkaz tashkil qilindi. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, ushbu agromarkazlar xizmat qiladigan hududdan ancha yiroqda joylashgan bo‘lib, ish unumi ancha past edi. Masalan, Sariosiyoning er maydoni yirik bo‘lsa-da, tuman o‘z agromarkaziga ega emasligi tufayli unga Denov agromarkazi qishloq xo‘jalik texnikalari bilan xizmat ko‘rsatar edi. Xuddi shuningdek, Jarqo‘rg‘on tumani esa Termiz-Pattakesar agromarkazi xizmatidan foydalangan. Sovet hukumati voha xalq xo‘jaligini tiklash uchun, eng avvalo, qishloq xo‘jaligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kerak, deb hisoblaganligi sababli ishni qishloq xo‘jaligida texnikalashtirishni keng targ‘ib qilishdan boshladi. 1926-yilda Pattakesar va Sherobod tumanlariga «Fordzon» rusumli 6 ta traktor keltirildi¹⁴. 1927-yilga kelib, Boysun va Yurchi tumanlariga ham shu rusumdagi traktorlardan 7 tasi olib kelindi.

Yangi traktorlar, asosan, evropa rusumidagi traktorlar bo‘lib, dastlab uni ishlatishni deyarli hech kim bilmas edi. 1928-yilga kelib, vohadagi jami traktorlar soni 23 tani tashkil etdi. Bu traktorlarning ehtiyot qismlari topilmas hamda uni boshqarish mahalliy aholi uchun mushkul edi. 1928-yilda birinchi traktorchi mexanizatorlar tayyorlash kursi tashkil topdi. Kursni ilk bor bitirgan 92 kishi

¹⁰ Administrativnoye deleniye Soyuz SSR (rus tilida), Moskva, 1929.

¹¹ O‘zbekiston Milliy Arxivi. P-86-fond, 1-ro‘yxat. 2393-ish, 29-varaq.

¹² Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи, очерклар. VII китоб. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 319.

¹³ O‘zbekiston Milliy Arxivi. P-86-fond, 1-ro‘yxat. 3272-ish, 101-varaq.

¹⁴ Мирзаев З., Қобилов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи. – Термиз: 1996. – Б. 18.

mexanizator sifatida ish olib bordilar. Keltirilgan traktorlarning og'irligi 1,5 tonna, 20 ot kuchiga teng bo'lib, 3 ta tezlikda harakatlangan. O't olish tizimida doimiy nosozliklar bo'lib, bir-ikki soat ishlaganidan so'ng uning dizel baki va havo filtrini tozalash shart bo'lgan. Albatta o'sha davr nuqtai nazaridan olib qarasa, bu ko'rsatgich yaxshi natija bergan. 1929 – 1941-yillar oralig'ida Qishloq xo'jaligining “Meva va sabzavotchilik” tarmog'ida ham yutuqlarga erishildi. Bir qatorda ko'plab yangi sanoat korxonalarini Denov shahrida vinochilik zavodlari ishga tushirildi Surxondaryoning Oltinsoy, Sariosiyo tumanlaridan etishtirilgan mevalar qayta ishlanib qadoqlash ishlari amalga oshirildi. Shu yillar ichida yalpi mahsulot hajmi «oktyabr to'ntarishi» yillariga nisbatan 33 baravarga oshirildi¹⁵.


Surxondaryo okrugi tugatilib, o'rnida Surxondaryo viloyati 1941-yil 6-mart sanasida tuzildi. Uning tarkibiga 14 tuman kirgan.

Maydoni 20,1 ming km². Aholisi 2821,9 ming kishi (2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra). Tarkibida 14 ta tuman (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on), 8 ta shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on), 114 ta shaharcha, 865 ta qishloq aholi punktlari mavjud (2020). Markazi – Termiz shahri.



2-rasm. Surxondaryo viloyati xaritasi.

¹⁵ Бичков Д., Блинников А. Сурхондарё области (қисқача справочник). – Т.: Ўзбекистон, 1970. – Б. 9.



3-rasm. Surxondaryo viloyatining ma'muriy hududiy xaritasi.

Surxondaryo viloyati tashkil etilgandan so'ng Qishloq xo'jaligida tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'tmishda viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi mavqeda edi. Keyingi davrda yangi tarmoqlar vujudga keldi. Viloyatning tabiiy geografik o'rni qulay, mehnat resurslari ham yetarli.

Viloyatda Sovxoz va Kolxoz xo'jaliklari shakllantirilib, qayta qurish yillariga qadar ularning soni oshib, tushib turgan. 1941-yilda Ikkinchi jahon urushi yillarida oziq-ovqat taqchilligi yillarida aholining asosan kundalik hayotida meva va sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabi ikki-uch baravar oshdi. Urush yillaridan so'ng hududda cho'llarni o'zlashtirish jadal olib borildi. Surxo-Sherobod cho'lini o'zlashtirish natijasida katta dehqonchilik hududlari vujudga keldi.

O'zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan ma'lumotlariga ko'ra, mustaqillikka qadar mamlakatimizda meva va sabzavotchilik tarmog'ining faoliyatiga to'xtalsak. O'zbekistonda agrosanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun 1975-yilda «Uzmevasabzavotuzumsanoat» respublika agrosanoat birlashmasi tashkil etilgan. Bu birlashma meva, uzum, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarini etishtirish va qayta ishlash bilan shugullangan. Tarixiy taxlil qiladigan bo'lsak, bu yillarda dunyo mamlakatlarida 300 dan ortiq meva va sabzavot turlari yetishtirilgan va yangi mahaliy seleksiya navlar yaratilgan. Keyingi davrlarda mazkur birlashma negizida 1981-yilda respublika meva va sabzavot xo'jaliklari vazirligi tashkil etildi. Ushbu vazirlik 275 ta ixtisoslashtirilgan davlat xo'jaligini, 18 ta vinochilik va 11 ta konserva zavodlarini birlashtirdi, ularda 190 mingdan ortiq kishi mehnat qilardi. Respublika agrosanoat birlashmasi tarkibiga ilmiy ishlab chiqarish bo'limlari ham kirgan edi. 1980-yillarning o'rtalariga kelib 15 ta ishlab chiqarish agrar birlashmalari mavjud bulib, ular 79 ta bogdorchilik-uzumchilik xo'jaliklarini, shu jumladan, 10 ta sovxoz zavodni, shuningdek, 7 ta vinochilik va 6 ta konserva zavodlarini o'z ichiga olgan edi¹⁶.

¹⁶ Саидакбар Ризаевич Ризаев. Шараф Рашидов: штрихи к портрету. «Ёзувчи» - «Нур». -Т., 1992.-С.85-86.

O'zbekistonning janubiy Surxondaryo viloyati tumanlaridan Oltinsoy, Sariosiyo, Denov Termiz, Uzun, Jarqo'rg'on tumanlarida meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyati to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilgan raqamlar ichida hisoblangan¹⁷.


Agrosanoat integratsiyasini amalga oshirishi lozim bo'lgan xo'jaliklararo korxonalar va tashkilotlar soni sezilarli ravishda ortdi. Ular respublika iqtisodining yaxshilanishida qishloq xo'jaligining sanoat negiziga o'tkazishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Jamoat sektori bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishda yakka tartibdagi xo'jaliklar ham muhim rol o'ynadi. O'zbekiston rahbariyati bu vazifani xalq etilishini qishloq aholisining bandligi muammosi bilan mustaxkam bog'lagan xolda amalga oshirishga harakat qildi. Aholi bandligi ijtimoiy sohaning eng muhim omili sanaladi. Jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan kishilar o'z tomorqalarida ishlab, XX asr 80-yillarning boshlarida 2,5 milliard so'm miqdorda meva va sabzavot mahsulotlari etishtirdilar, bu O'zbekistonda ishlab chiqarilgan butun qishloq xo'jalik mahsulotlarining deyarli to'rt dan bir qismini tashkil etardi. Biroq uni saqlab turish va qayta ishlash korxonalarining talabga javob bermasligi ancha isrofgarchiliklarni keltirib chiqargan. Qayta ishlangan va tayyor holatga keltirilgan meva va sabzavot mahsulotlari sifat darajasining pastligi, ayrim hollarda yaroqsiz deb tashxis qo'yilganligi arxiv ma'lumotlarida uchraydi¹⁸.

Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi keskin agrar muammolar, ayniqsa, respublika qishloqlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yumshatish uchun dastlabki harakat faqat respublika yuqori rahbariyati almashtirilganidan so'ng boshlandi. Respublikaning yangi rahbariyatiga 1989-yil Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning dastlabki kunlardanoq O'zbekiston xalqlari milliy manfaatini himoya qilib chiqdi, ularning azaliy, yillar davomida to'planib qolgan ehtiyojlarini izchil xalq qilishga intildi. Diqqatga sazovori shundaki, yangi rahbariyat paxta yakkahokimligiga qarshi keskin kurash olib borganligini o'sha mustabid tuzum hayotligidayoq ochiq e'lon qildi. Respublika rahbariyatining ko'rgan chora-tadbirlari natijasida (chigit ekiladigan maydonlarning kamaytirilishi, paxta tayyorlash rejasining mo'tadillashuvi va xokazolar) 1989-yildayoq ekin ekiladigan maydonlarning umumiy miqdorida paxtaning salmog'i 63,9 % ga tushirildi. O'zbekiston mustakillikka erishgandan keyin agrar sohada rivojlanish davri boshlandi. 70 yil davomida sho'rocha «kolxozchi» bulishga odatlanib qolgan o'zbek dexqoni uchun fermer xo'jaliklarini tuzishdek "yangi yo'l" ularni kelajak sari harakatga motivatsiya bo'ldi. Shuning uchun ham, bu yangilik qisqa muddat ichida keng tus oldi. 1991-yil 1-aprelda respublikada 6143 ta fermer xo'jaligi mavjud bulib, ulardan 4666 tasi sut etishtirishga, 1477 ta fermer xujaligi esa koramollarni boqib parvarish qilishga ixtisoslashtirilgan edi¹⁹.

¹⁷ O'zbekiston Milliy Arxivi. 400-fond, 1-ro'yxat. 2804-ish, 139-varaq.

¹⁸ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 770-fond, 1-ro'yxat. 1-ish, 18-varaq.

¹⁹ Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 1990, № 3.-Б.18.



4-rasm. Mustaqillik arafasida O'zbekistonda ekin maydonlarining tarkibi (% hisobida).

E'tibor beradigan bo'lsak 4-rasmdagi diagrammada 1990-yilda O'zbekistonda mustaqillikka erishish arafasi qishloq xo'jaligida keskin o'zgarishlar bo'lib, umumiy ekin ekiladigan maydonlariga hududiy taqsimotlar qayta ko'rib chiqildi. Paxta monopoliyasi qarshi kurash boshlandi. Ammo ushbu davrdagi raqamlar ham paxta monopoliyasi ustun ekanligini bildirar edi. Ilmiy jihatdan asoslangan almashlab ekish tizimi buzilgan, yer o'z xosildorligini yo'qota borgan va suv resurslarining etishmovchiligi kuchaygan. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklar vujudga keldi. Bunday xolatni izoxlab, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov shunday degan edi: Eng avvalo, bizga mo'rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan paxta yakkaxokimligi va boy mineral xom ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qolganligini aytish lozim. Bu og'ir merosning yana bir xususiyati respublikaning yoqilg'i va g'alla masalasida markazga qaramligi, un, shakar, gusht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarining, boshqa xalq iste'mol tovarlarining, tayyor mahsulotlarning chetdan olib kelinishida yaqqol ko'rinadi²⁰.

№	Tashkil qilingan sana	Hududi ming kv.km	Aholining zichligi, 1 kv. Km. odam
Viloyat	06.03.1941	20.1	91.4
1	Angor	28.11.1979	235.4
2	Boysun	29.09.1926	22.6
3	Bandixon	18.05.1992	188.5
4	Denov	29.09.1926	368.2
5	Jarqo'rg'on	29.11.1965	133.2
6	Qiziriq	06.03.1975	223.1
7	Qumqo'rg'on	23.03.1977	69.3

²⁰ Khasanov S. SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF THE FRUIT AND VEGETABLE NETWORK OF UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF INDEPENDENCE //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 8. – S. 154-160.

8	Muzrabot	25.12.1968	0.74	134.2
9	Oltinsoy	23.11.1981	0.56	209.3
10	Sariosiyo	29.09.1926	3.93	37.4
11	Termiz	29.09.1926	0.86	90.0
12	Uzun	29.03.1991	1.63	75.5
13	Sherobod	29.09.1926	2.73	48.6
14	Sho'rchi	09.02.1929	0.85	172.6
15	Termiz shahri	1929	0.03	3953.3

5-rasm. Surxondaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishi.

Surxondaryo viloyatida bu davrda dehqonchilikda foydalanadigan yerlar maydoni 284,3 ming gektar, shundan sug'oriladigan yerlar 271,6 ming gektar, shu jumladan, 120,8 ming gektar yerga paxta, 129,7 ming gektar yerga don ekinlari, 9,1 ming gektar yerga sabzavot, 1,8 ming ga yerga poliz, 5,5 ming ga yerga kartoshka, 16,2 ming gektar yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. 33,5 ming gektar yer ko'p yillik daraxtzorlar, 12,7 ming ga yer mevazor, 5,2 ming ga yer tutzor, 15,1 ming gektar yer tokzorlar bilan band. 854,2 ming gektar yerni yaylovlar egallagan. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida kollektor-drenaj tarmoqlari qurilgan.

№	Tuman	Shahar	Shahar tipidagi qo'rg'on	Qishloq fuqarolar yig'ini	Qishloq	Mahalla qo'mitalari
Viloyat bo'yicha	14	8	7	114	847	627
Angor	1	-	1	7	36	35
Boysun	1	1	-	7	56	28
Bandixon	1	-	-	5	17	13
Denov	1	-	1	17	125	101
Jarqo'rg'on	1	1	1	7	74	60
Qiziriq	1	-	1	5	44	28
Qumqo'rg'on	1	1	1	8	66	51
Muzrabot	1	-	-	9	56	34
Oltinsoy	1	-	-	9	44	45
Sariosiyo	1	1	1	9	108	54
Termiz	1	-	-	5	34	24
Uzun	1	-	-	7	74	40
Sherobod	1	1	-	9	70	43
Sho'rchi	1	1	1	10	43	52
Termiz shahri	-	1	-	-	-	19
Denov sh	-	1	-	-	-	-

6-rasm. Viloyatning aholi yashash infratuzilmasi.

1994-yilda O'zbekistonning janubiy Surxondaryo viloyatida Qishloq xo'jaligining meva va sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan, qayta ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar negizida

tashkil etiladigan dehqonchilik sanoati firmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi²¹. Qaror ilovasiga ko‘ra “O‘zmevasabzavotuzumsanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi dehqonchilik sanoati firmalari, korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati tashkil etildi.

Dehqonchilik sanoati firmalari tarkibiga Surxondaryo viloyatidan “**Oltinsoy**” dehqonchilik sanoati firmasi, “**Denov**” dehqonchilik sanoati firmasi, “**Sariosiyo**” dehqonchilik sanoat firmalari kirdi.

Turli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni va aholiga sotishni ko‘paytirish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish hamda respublika meva-sabzavot majmui qishloq xo‘jaligi, qayta ishlovchi va boshqa korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi asosida raqobatli ish sharoitlari yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi meva-sabzavot majmui korxonalar va tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1997-yil 18-iyul, 363-son Qaroriga muvofiq “O‘zmevasabzavotuzumsanoat” uyushmasi negizida “O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding” xolding kompaniyasini, shuningdek, hududiy “Mevasabzavot” birlashmalarini tashkil etildi. Poliz mahsulotlari, uzum, anor yetishtiruvchi xo‘jaliklarning hududiy “Mevasabzavot” birlashmalari tarkibida: “Surxon uzumlari” “Surxondaryo anori” 1997-2000-yillar uchun ishlab chiqilgan xolding va hududiy “Mevasabzavot” birlashmalari korxonalarini qurish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlash hamda chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali rivojlantirildi. Shuningdek sohani rivojlantirish masalalari to‘xtab qolmadi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3709-[Farmoni](#), bu soha rivojlanishda davom etayotganini bildirgan. Bunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-avgustdagi F-2306-son Farmoyishiga asosan tashkil qilingan maxsus komissiyaning xulosasiga asosan, 2006-yil birinchi choragida meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish haqidagi takliflari ijobiy baxolanib barcha shirkat xo‘jaliklari tugatilib, fermer xo‘jaliklari tuzilishi bilan ularning tarkibiy o‘zgarishlar bo‘ldi. 2006-yil 15-aprelgacha yangi tashkil qilinadigan fermer xo‘jaliklari bilan qayta ishlash korxonalarini o‘rtasida meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetkazib berish to‘g‘risida shartnomalar tashkil qilindi va ularda ishlab chiqarishni kamida 30 foizgacha avans bilan ta‘minlandi.

Surxondaryo viloyati

T/r	Xo‘jaliklar nomi	Tumanlar
1	Bobur nomidagi	Oltinsoy
2	“Qorlik”	Oltinsoy
3	Ulug‘bek nomidagi	Oltinsoy
4	“Oltinsoy”	Oltinsoy
5	X. Qosimov nomidagi	Oltinsoy
6	“Qo‘shchinar”	Oltinsoy
7	“Vaxshivor”	Oltinsoy
8	“Hayrondara”	Oltinsoy
9	“Sayrak”	Oltinsoy

²¹ 1994-yil 28-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori “O‘zbekiston Respublikasi meva-sabzavot majmui korxonalar va tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 25-son qarori. <https://lex.uz/mact/-1014809>.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-6

10	“Shirin”	Oltinsoy
11	“Xo‘jasoat”	Oltinsoy
12	“Rabot”	Boysun
13	A. Temir nomidagi	Denov
14	A. Navoiy nomidagi	Muzrabot
15	“Sangardak”	Sariosiyo
16	“Sariossiyo”	Sariosiyo
17	“Dashnobod”	Sariosiyo
18	“Termiz-2500”	Termiz

7-rasm. 2006-yilda fermer xo‘jaliklariga qayta tashkil etiladigan meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari)²².

Hududlar	Muqobil MTP	Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	Yoqilg‘i moylash materiallarini sotish tarmog‘i	Mineral o‘g‘itlarni sotish tarmog‘i	Kichik banklar (banklar filiallari)	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash tarmog‘i	Transp xizmat tarmo
Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar:		1	1	1	1	3	1
Andijon	12	10	4	4	5	15	6
Buxoro	5	2	1	3	2	14	5
Jizzax	2	1	1	1	1	5	2
Qashqadaryo	12	1	2	4	7	15	6
Navoiy	1	1				2	1
Namangan	22	18	5	5	20	25	8
Samarqand	39	9	11	7	14	35	14
Surxondaryo	18	12	3	4	8	12	7
Sirdaryo	4	2	2	1	2	6	3
Toshkent	62	45	11	8	27	46	17
Farg‘ona	12	15	4	4	4	15	6
Xorazm	1	1	1		1	3	1
Jami:	191	118	46	42	92	196	77

8-rasm. 2006-yilda qaytadan tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik va uzumchilik qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari) hududida tashkil etilayotgan bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Atamuratovich, K. E. (2021). Fruit and Vegetable Sector of Agriculture in the Years of Independence: Development, Challenges and Results. JournalNX, 7(10), 124-127.

²² (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 2-son, 8-modda, 27-son, 246-modda; 2009-y., 15-son, 180-modda; 2010-y., 20-son, 151-modda; 2011-y., 52-son, 561-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2017-y., 07/17/3398/0282-son).

2. Beg'amova N.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil topishi va klaster tizimi: tarix va tahlil (1991-2022 yillar Surxondaryo viloyati misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Termiz. – 2022. 3-bet.
3. “O'zbekistonda oziq – ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari” mavzuidagi xalqaro konferensiyada Prezident I.A.Karimov nutqi (2014-yil 6-iyun). Vatanparvar; 2014-yil 13-iyun. №24).
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi). – T.: O'zbekiston; 2016. – B.15.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyahasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6673808>.
6. <https://yuz.uz/uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi-aholi-hayoti-sifatini-oshirish-omili>.
7. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 279.
8. Qabulov E.A., Hasanov Sh.Sh. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligining meva va sabzavotchilik tarmog'i: rivojlanishi, muammolar va natijalar. QarDU XABARLARI Ilmий-назарий, услубий журнал. 2021 3(49). 85-89-betlar.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati.
10. Administrativnoye deleniye Soyuzu SSR (rus tilida), Moskva, 1929.
11. O'zbekiston Milliy Arxivi. P-86-fond, 1-ro'yxat. 2393-ish, 29-varaq.
12. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи, очерклар. VII китоб. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 319.
13. O'zbekiston Milliy Arxivi. P-86-fond, 1-ro'yxat. 3272-ish, 101-varaq.
14. Мирзаев З., Қобилов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи. – Термиз: 1996. – Б. 18.
15. Бичков Д., Блинников А. Сурхондарё области (қисқача справочник). – Т.: Ўзбекистон, 1970. – Б. 9.
16. Саидакбар Ризаевич Ризаев. Шараф Рашидов: штрихи к портрету. «Ёзувчи» - «Нур». - Т., 1992.-С.85-86.
17. O'zbekiston Milliy Arxivi. 400-fond, 1-ro'yxat. 2804-ish, 139-varaq.
18. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 770-fond, 1-ro'yxat. 1-ish, 18-varaq.
19. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 1990, № 3.-Б.18.
20. Khasanov S. SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF THE FRUIT AND VEGETABLE NETWORK OF UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF INDEPENDENCE //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – S. 154-160.
21. 1994-yil 28-oktabrda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori “O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot majmui korxon va tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 25-son qarori. <https://lex.uz/mact/-1014809>.

22. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 2-son, 8-modda, 27-son, 246-modda; 2009-y., 15-son, 180-modda; 2010-y., 20-son, 151-modda; 2011-y., 52-son, 561-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2017-y., 07/17/3398/0282-son).

